



**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**AMALIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

**ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**XALQARO ILMIY KONFERENSIYA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

*ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ  
ЛИЧНОСТИ*

*PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN PERSONALITY  
DEVELOPMEN*

**XALQARO ILMIY KONFERENSIYA  
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE**

**TOSHKENT-2024**

“Zamonaviy shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU, 2024 y, 585 bet..

**Ma’sul muharrir:**

Psixologiya fanlari doktori, professor N.SH. Umarova

**Tahrir hay’ati:**

Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova

Psixologiya fanlari doktori, professor Z.T.Nishanova

Psixologiya fanlari doktori, professor D.S.Qarshiyeva

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent R.N.Ismaylova

Amaliy psixologiya kafedrasida dotsenti G.K.Alimova

Psixologiya fanlari PhD, dotsent SH.K.Sattorova

O’qituvchi U.R.Alimova

O’qituvchi N.F.Turayev

O’qituvchi Sh.S.Salomov

Sahifalovchilar: o’qituvchi M.N.G’aniyev

To’plamda keltirilgan maqolalarning mazmuni va keltirilgan statistik ma’lumotlarga mualliflar mas’ul.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kengashining 2024 yil \_\_\_\_ noyabrda bo’lib o’tgan kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

onalariga psixologik yordam ko‘rsatishning o‘ziga xosligi.	
<b>Baxromov.X.X.</b> Uyushmagan yoshlarning motivatsion sohasiga tasir etuvchi omillar	442
<b>Berdiyeva.G.J.</b> O‘qituvchilar o‘rtasidagi bulling: psixologik omillar va ijtimoiy ta’sirlar	445
<b>Djavgarova D.Sh.</b> Boshqaruvchanlik faoliyatida qaror qabul qilishning psixologik qirralari	448
<b>Eshboyev Sh.F.</b> Mojarolarda tomonlarning tajovvuzkorlik darajasini darajasini aniqlash	450
<b>Eshnazarova F.J.</b> Psixologik jihatdan murakkab hisoblangan sport turlarida sportchining emotsional holatlarini namoyon bo‘lishi	453
<b>Ibragimova X.X.</b> Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy moslashuvi xususiyatlari.	456
<b>Jumaniyozova N.R.</b> Mutaxassislarda kasbiy so‘nishga olib keluvchi ijtimoiy sabablar	458
<b>Jurakulova D.Z, Manzarova S.F.</b> Shaxs shakllanishida psixologik zo‘ravonliklarning o‘rni	462
<b>Kadirova D.F.</b> Talabalarda lingvistik qobiliyatni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	465
<b>Karshieva D.S. Musajonov U.R.</b> Altruistik motivlarni vujudga kelishida kitobxonlikning roli	469
<b>Karshiyeva D.S.</b> Kasbiy stress va uning oqibatlarini	471
<b>Kuchmuradova B.S.</b> Maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarida ommaviy madaniyatning shakllanishi	474
<b>Kushakova N.I.</b> Oilalarda internetga tobelikning bugungi kundagi ahamiyati	477
<b>Latipova U.Y.</b> Yetuklik yoshidagi ayollar emotsional holatlarining namoyon bo‘lishida psixofiziologiyani o‘rni	479
<b>Maxmutboyev R.SH.</b> Zo‘ravonlikka moyil shaxslarning psixotiplari va ularning xususiyatlari	482
<b>Meliziyayev A.A.</b> Ommaviy sport – inson kapitalini rivojlantirish mexanizmi sifatida	485
<b>Muhiddinova M.M.</b> Kiberijtimoiylashuv va “z” vlodlari: avlodlararo kommunikatsiya muammolari	488
<b>Nazarov S.U.</b> O‘quvchi-sportchilarning psixofiziologik holatlarini baholashda ishlatiladigan testlarni o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar	490
<b>Olimjonova R.A., Xalikova Sh.T.</b> Ta’lim-tarbiyada zamonaviy texnologiyalarning o‘rni	494
<b>Pulatov J.A.</b> Sport musobaqalarida sportchining psixologik holatlarida emotsional tanglik va unga sabab buluvchi omillar	497
<b>Rasulov Z.P.</b> Bo‘lajak sport psixologlari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda trenerlar shaxsiga xos qobiliyatlar shakllanganligini o‘rganish zaruriyati	500
<b>Razakova R.S.</b> Shaxslardagi yolg‘izlik hissining ijtimoiy moslashuv	505

1. Xodjayeva, G. A. (2016). Pedagogik psixologiya. Toshkent: Fan va Texnologiyalar NMIU.
2. Saidov, M. H., & Yuldasheva, N. A. (2019). Psixologik salomatlik va o'qituvchi munosabatlari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA Matbuot nashriyoti.
3. Tursunova, Sh. B. (2018). Ijtimoiy psixologiya asoslari: ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlar. Toshkent: O'qituvchi.
4. Ergashov, A. M., & Saidova, R. N. (2020). Maktab jamoasida stress va konfliktlarni boshqarish usullari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Karimov, A. S. (2021). Pedagogik jamoada sog'lom ijtimoiy muhit yaratish: O'qituvchilar o'rtasida kommunikatsiyani rivojlantirish yo'llari. Toshkent: O'zFA nashriyoti.
6. Бердиева Г.Дж. “Социально-психологические особенности возникновения конфликтных ситуаций у студентов” // Проблемы современного образования, №5, 2020 год.
7. Berdieva G. J. “Relationships between conflict behavior and conflict situations in the student community”. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 412–415. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/389>
8. Berdieva Gulmira Juraevna. “Psychological basis of the concept of conflict behavior”. Archive of Conferences, 2021 yil.

## **BOSHQARUVCHANLIK FAOLIYATIDA QAROR QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK QIRRALARI**

**Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi** - Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda boshqaruv nazariyasi asosini tashkil yetgan xorijiy boshqaruv maktablari misolida qarorlar qabul qilishning ish faoliyatiga ta'siri nazariy tahlillar asosida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar.** Boshqaruv, qaror qabul qilish, maktablar, boshqaruv faoliyati, qonun-qoida.

**Kirish.** Bugun yurtimiz hayotida yuz berayotgan voqeliklar ta'lim sohasida tarbiyaning yangicha paradigmasi yangicha mazmun kasb etayotganligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatlarda tarbiyaviy jarayonlar asosan pedagoglar, ustoz-murabbiylarning xohish-irodasi va mahoratiga, muayyan ta'lim muassasi ma'muriyatining tashabbuskorligi hamda bu yerdagi an'analarga bog'liq. Jamiyatda olib borilayotgan islohotlarni samarali amalga oshirishda jahon fan yutuqlari, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribasi bilan bir qatorda milliy boshqaruv an'alaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Puxta o'ylangan, har tomonlama tahlildan o'tgan qarorlar ko'zlangan natijaga yerishishning yarmi, ya'ni to'g'ri qaror qabul qilish maqsadga yerishish imkoniyatini kengaytiradi.

**Asosiy qism.** Boshqarish nazariyasi asosini tashkil etgan qonun-qoidalar xususiyatiga qarab xorijiy boshqaruv maktablari turli guruhlarga bo'linadi. Ular jumlasiga:

- boshqaruvning “klassik” maktabi yoki “ilmiy menejerizm” maktabi;
- “inson munosabatlari” maktabi;
- boshqaruvning “emperik” maktabi;

“ijtimoiy tizimlar” maktabi;  
boshqaruvning “yangi” maktabi kiradi.

“Klassik” maktab namoyondalari bo’lib, amerikalik muhandis va tadqiqotchi F.Teylor, fransuz olimi A.Fayol, ingliz L.Urvin, nemis iqtisodchilari M.Veber, G.Ford, G.Emersonlar hisoblanadi. “O’zbek tilining izohli lug’ati”da qarorga shunday ta’rif berilgan: (arab.- to’xtam, hukm, xulosa, tub, asos, tinchlik, orom, manzilgoh, turar joy)

1) Biror ish, masala va sh.k. yuzasidan qabul qilingan xulosa, amalga oshirish lozim topilgan qat’iy fikr: ahd, to’xtam.

2) Rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va sh.k. ning biror ish, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilgan to’xtami, hukmi.

3) Osoyishta, bezovta bo’lmagan hol; osoyishtalik, orom.

Qaror qabul qilish deb, bajarilishi lozim bo’lgan ishning aniq bir yo’lini tanlab olish, muqobil yo’llardan biri – yaxshisini tanlashni tushunamiz. Qaror qabul qilish – murakkab fikrlash jarayoni bo’lib, tizimli ravishda muammoni anglash, muvofiq maqsadni qo’yish va unga erishish uchun vosita tanlashdan iborat. Boshqaruv qarori - faoliyatni amalga oshirish uchun shart bo’lgan vazifa(topshiriq)ning aniq bir tartibi, mezonini belgilab berish uchun mutaxassis (rahbar) tomonidan bildirilgan xulosaviy munosabat hisoblanadi.

Qarorlar qabul qilish har qanday boshqaruv faoliyatining muhim qismi bo’lib, qarorni boshqaruv mehnati mahsuli, uni qabul qilishni esa ushbu mahsulotni paydo bo’lishiga olib boruvchi jarayon sifatida qarash mumkin. Qarorlarni qabul qilish tajriba oshgan sari yuzaga keladigan ko’nikmalardan hisoblanadi. Boshqaruv qarorlari insonlar tomonidan qabul qilinadi va ularga ta’sir ko’rsatadi. Shu sababdan qarorlar qabul qilishda bir qancha omillarni hisobga olish lozim. Qaror qabul qilishga tashkiliy, huquqiy, psixologik, resurli va vaziyatli kabi omillar bevosita ta’sir ko’rsatadi. Faqatgina resursli omilning zamirida vaqt, bilim, axborot, mablag’, mutaxassisning tayyorgarligi kabilar ifodalanganligini inobatga olsak, ularni ta’sir darajasini alohida sharhlash shart emas.

Rahbarlardan o’z faoliyatida tezkor qaror qabul qilish talab etiladi. Negaki vaziyat omili o’z ta’sir darajasiga egadir. Shu sababli, qarorga ayrim talablar qo’yiladi. Bular:

- Qaror ilmiy asoslangan bo’lishi lozim.
- Tezislar bir-biri bilan aloqador va yakdil bo’lishi kerak.
- Xuquq va javobgarlik doirasida bo’lishi lozim.
- Aniq yo’nalishga ega bo’lishi kerak.
- Vaqt bo’yicha qisqa va aniq bo’lishi kerak.
- Tezkor bo’lishi kerak.
- Xodimlar manfaatlarini himoyalashga qaratilgan bo’lishi kerak.
- Mavjud resurslarni inobatga olgan bo’lishi kerak.
- Hal qilinishi lozim bo’lgan barcha vazifalarni qamrab olgan bo’lishi kerak.

Qaror qabul qilish jarayoni fikrlash jarayoni bo’lib, u oldindan maqsadni va harakatlarni amalga oshirish uslubini anglashni, makon va vaqt, vaziyat va mas’uliyatni his etishni taqozo etadi.

**Xulosa.** Hozirgi vaqtda, jamiyatimiz hayotida shaxs qaror qabul qilish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini turli xil metodlar asosida o’rganish dolzarb bo’lgan masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ushbu jarayonlar insonlarda mavjud hamda hayoti davrida shakllangan xulq-atvor, individual-psixologik sifatlar va

hissiy-yemotsional holatlari haqida to'liq axborotlar olishning asosiy usuli hisoblanadi. Huddi shuningdek, shaxsning qarorlarni qabul qilish jarayonini o'rnanish ham ma'lum bir metodlar yordamida amalga oshiriladi. Bular jumlasiga kuzatish, laboratoriya, test, kontent analiz va boshqa metodlar kiradi. Bu kabi metodlarning har biri o'ziga xos bo'lgan metodologik asosga yega bo'ladilar.

Bundan tashqari, qaror qabul qilish jarayonini maktab ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarda o'rganish shu mavzu doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga yordamchi ilmiy-amaliy tadqiqot vazifasini o'tashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Магомедов К.О. Социология и психология управления: Учебное пособие / К.О. Магомедов. - М.: РАГС, 2009. – 198 с.
2. Мануйлов Г.М. Психологическое управление в менеджменте / Г.М. Мануйлов, В.В. Козлов, Н.П. Фетискин. - М.: Академия, 2011. – 325 с.
3. Смирнов Э. А. Разработка управленческих решений: Учебник для вузов. - М: ЮНИТИ ДАНА, 2000. – 271 с.
4. Сысоев В. В. Теоретические основы психологии управления. — М.: Юрайт. 2019. – 394 с.
5. Тейлор Ф.У. Менеджмент: Пер. с англ. М.: Контроллинг, 2004. – С.44.

### **MOJAROLARDA TOMONLARNING TAJOVVUZKORLIK DARAJASINI ANIQLASH**

**Eshboyev Shoxrux Xon Farxodovich** – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi bosh mutaxassisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tajovuskorlik shakllari hamda darajalari ko'rsatib o'tilgan. Tajovuskorlik shakllarining ta'riflari. Tajovuskorlik darajasini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma maqolaning asosiy qismidir.

**Kalit so'zlar:** tajovuskorlik, irsiy, jismoniy tajovuz, og'zaki tajovuz, g'azab va dushmanlik, so'rovnoma.

Kirish. Insonda tajovuskorlik darajasini aniqlash uchun avvalo uning ichki dunyosini kuzatish lozim. Tajovuskorlik tabiati ba'zilarida irsiy meros bo'lsa, boshqalarda esa bu bloklangan harakatlar, ehtiyoj va istaklarning yoki umidsizlikning natijasidir.

Adabiyotlar tahliliga nazar tashlasak agressiyaning 4 ko'rinishi mavjudligiga guvoh bo'lamiz: jismoniy tajovuz, og'zaki tajovuz, g'azab va dushmanlik. Aslida, tajovuskorlik boshqa odamlarga ta'sir o'tkazish yoki zarar yetkazish maqsadida amalga oshirilgan harakatlar na'munasi sifatida ta'riflanadi. Tajovuskorona xatti-harakatlarning eng keng tarqalgan shakli bu jismoniy tajovuzdir. Bu boshqalarga jismoniy zarar yetkazish uchun amalga oshirilgan xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi va og'zaki tajovuzdan farq qiladi. Og'zaki tajovuz esa so'zlar orqali boshqalarni xafa qilish harakatlarini o'z ichiga oladi. Og'zaki tajovuz ko'pincha "psixologik" tajovuz sifatida tushuniladi. Bunda boshqalarning his-tuyg'ularini jarohatlab, psixologik og'riq yetkazishga qaratilgan harakatlar majmuyidir. Tajovuskorlikning yana bir shakli - munosabatlarga oid tajovuz bo'lib ochiq tajovuzdan farq qilinishini bilan ajralib turadi. Chunki bu tajovuzkor harakatning maqsadi boshqalarning munosabatlarini manipulyatsiya qilish va ularga ta'sir o'tkazishdir.